



INNOVATSION IQTISODIYOTNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI

PhD, dots. **Madaminov In'omjon Ozodovich**

Urganch davlat universiteti

ORCID: 0000-0002-6832-9131

inomjon.ozodovich@gmail.com

Annotasiya. Bugungi kunda iqtisodiy resurslar hajmining qisqarib borayotganligi, xalqaro iqtisodiyotning globallashuvi mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda innovatsion iqtisodiyotni joriy etilishi dolzarbligini yanada oshirmoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti o'tgan asrning 90 yillariga qadar xomashyo va qishloq xo'jaligiga asoslangan xo'jalikdan, bugungi kunda ishlab chiqarish resurs tejamkor va ilmsig'imli bo'lgan tayyor iste'mol mollari ishlab chiqaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan innovatsion xo'jalik yuritish tizimiga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Xo'jaliklar faoliyatini innovatsion tizim ta'siridagi samaradorligi innovatsiyalarning ahamiyatli chuqur anglash, ularni iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalari doirasida tegishli kombinatsiyasini ta'minlashni taqozo etadi. O'z o'rnida mazkur kombinatsion tizim ta'siriga ega bo'lgan jarayon innovatsion faollikka qaratilgan moliyaviy-iqtisodiy munosabatni to'g'ri tashkil etishga yo'naltirilgan qator vazifalar ijrosini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar: global innovatsion tizim, bilimlar iqtisodiyoti, innovatsion infratuzilma, innovatsion jamg'arma, innovatsion indeks, ilmiy-texnikaviy ishlanma, innovatsion tovar, innovatsion samaradorlik.

ВАЖНОСТЬ И НЕОБХОДИМОСТЬ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

PhD, доц. **Мадаминов Инъомжон Озодович**

Ургенчский государственный университет

Аннотация. Сегодня сокращающийся объем экономических ресурсов, глобализация международной экономики еще больше повышают актуальность внедрения инновационной экономики в обеспечении устойчивого экономического роста в стране. Экономика Узбекистана постепенно переходит от фермерства, основанного на сырье и сельском хозяйстве, как это было до 90-х годов прошлого века, к инновационной сельскохозяйственной системе, которая сегодня производит и предоставляет услуги по производству готовых потребительских товаров, производство которых является ресурсосберегающим и научным. Значительное глубокое понимание эффективности экономической деятельности под влиянием системы инноваций обуславливает необходимость обеспечения их надлежащего сочетания в рамках различных отраслей и секторов экономики. В свою очередь, процесс, на который влияет эта комбинированная система, вызывает необходимость обеспечения выполнения ряда задач, направленных на правильную организацию финансово-экономических отношений, направленных на инновационную деятельность.

Ключевые слова: глобальная инновационная система, экономика знаний, инновационная инфраструктура, инновационный фонд, индекс инноваций, научно-техническое развитие, инновационный бренд, эффективность инноваций.

THE IMPORTANCE AND NECESSITY OF AN INNOVATIVE ECONOMY

PhD, assoc. prof. **Madaminov In'omjon Ozodovich**
Urgench State University

Abstract. *Today, the shrinking volume of economic resources and the globalization of the international economy further increase the relevance of the introduction of an innovative economy in ensuring sustainable economic growth in the country. The economy of Uzbekistan is gradually moving from farming based on raw materials and agriculture, as it was before the 90s of the last century, to an innovative agricultural system that today produces and provides services for the production of finished consumer goods, the production of which is resource-saving and scientific. A significant in-depth understanding of the effectiveness of economic activity under the influence of the innovation system makes it necessary to ensure their proper combination within various industries and sectors of the economy. In turn, the process influenced by this combined system causes the need to ensure the fulfillment of a number of tasks aimed at the proper organization of financial and economic relations aimed at innovative activities.*

Keywords: *global innovation system, knowledge economy, innovation infrastructure, innovation fund, innovation index, scientific and technical development, innovative brand, innovation efficiency.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida innovatsiyalarni joriy etish, milliy korxonalar raqobatdoshligini oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini va bozordagi mavqeyini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham innovatsion faoliyatni rivojlantirish insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanmoqda. Innovatsion faoliyat–ishlab chiqarish va inson hayotiy faoliyatining boshqa sohalari ehtiyojlarini qondirishning muhim uslublaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish borasida, intellektual mulk huquqini yaratish, ularni muhofaza qilish, huquqiy egalarining manfaatlarini himoya qilish, innovatsiya sohasiga oid xalqaro integratsiyalashuvini jadallashtirish, xalqaro shartnomalarga kirish orqali milliy mualliflarining huquqlarini butun dunyoda muhofaza qilish kabi muhim masalalar davlat ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olindi.

O'zbekiston 2026 yilda top-50 innovatsion davlatlar qatoridan joy egallashni maqsad qilayotgani hech kimga sir emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022 yil 6 iyuldagi "2022 — 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi PF-165-sonli farmonida kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirishga ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, aynan innovatsion korxonalarni rivojlantirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishini ta'minlash nazarda tutilgan (Farmon, 2022). Shuningdek, yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimini ta'minlash orqali innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish mexanizmi ko'rsatib o'tilgan. Strategiyada yaratilgan kapitalni «tubdan yangilovchi» innovatsiyalarga qayta yo'naltirish tizimini shakllantirish belgilangan.

Bugungi kunda mavjud zahira va imkoniyatlarni safarbar etgan holda, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni oshirib borish, shu tariqa 2030 yilga borib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirib, "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun puxta zamin yaratilmoqda. Bunga avvalo, iqtisodiyotda ilm va innovatsiyalarga asoslangan rivojlanish hisobidan yangi texnologiyalar va qo'shilgan qiymat zanjirlarini ko'paytirish orqali, mehnat samaradorligida ham qilinishi shart bo'lgan tub o'zgarishlar orqali erishilishi nazarda tutilgan. Jumladan, "drayver" sohalarda, "xomashyodan-tayyor mahsulotgacha" degan tamoyil asosida, sanoat klasteri tizimini rivojlantirishni yo'lga qo'yish orqali sanoat mahsulotlari hajmi va mehnat unumdorligi oshiriladi.

Prezidentimiz tomonidan ta'kidlanganidek, "...birorta hududni ham, tarmoqni ham zamonaviy ilm va bilimlarsiz rivojlantirib bo'lmaydi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 50 foizidan ortig'i "bilimlar iqtisodiyoti" hisobidan, ya'ni, innovatsiyalar va yuqori malakali kadrlar tomonidan yaratilayotgani buni yaqqol isbotlamoqda" (Murojaatnoma, 2022).

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsion iqtisodiyot asosida innovatsion rivojlanish amaliyoti uzoq o'tmishdan mavjud bo'lishiga qaramay, ilmiy tadqiqot predmeti sifatida XX asrdan o'rganila boshlandi. Xususan, xorij iqtisodchi olimlaridan Shumpeter (1982) asarlarida innovatsion iqtisodiyot nazariyasini shakllanishi va rivojlanish tizimi asoslab berilgan. Kondratevning (2002) kon'yunktura nazariyasini ilmiy asosi jahon iqtisodiyoti haqida o'ziga xos munosabatlar tizimi va elementlarning turli aloqalari sifatida talqi etilib, biznes sikllari ishlab chiqarish jarayonida innovatsion omil asosi sifatida talqi etiladi. Xansen (1997) tadqiqotlarida avtonom investisiyalar iqtisodiyotda texnik-texnologik taraqqiyot asosida sifatida qayd etilib, qo'shimcha ishlab chiqarish va tabiiy resurslarni jalb qilish, demografik siljishlar va boshqalar kabi iqtisodiy omillar ta'siri ko'lamini oshirishini qayd etadi. Kuznes (1953) tadqiqotlarida yangi asrda mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy tengsizlik tendensiyalarini bekor qilish murakkab ahamiyatga ega ekanligini, bu jarayon iqtisodiy taraqqiyotdan ortda qolayotgan mamlakatlarda malakasiz ishchi kuchi bilan bir qatorda texnologik innovatsiyalari o'zlashtirish darajasi pasayishi hisobiga ro'y berishi ta'kidlanadi. Tviss (1989) ilmiy tadqiqotlarida ilmiy-texnik yangiliklarning mohiyati va roli, ularni iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni bilan birga makroiqtisodiy darajada innovatsion loyihalarni amalga oshirishni boshqarish, va innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Mensh (2001) iqtisodiyotdagi tarkibiy inqirozlarni tahlil qilish orqali texnik va ijtimoiy-tashkiliy yangiliklarni kon'yunktura sikllariga bog'liq bo'lgan iqtisodiy rivojlanishning asosi sifatida qayd etadi. Klaynknext (1992) iqtisodiyotda texnologik tartib mavjudligi to'g'risida fikr yuritib, iqtisodiyotning texnologik tuzilishini belgilovchi asosiy omil nanotexnologiyalardir degan xulosaga keladi. Konovalenko (2003) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda korxonalarda innovatsion rivojlanishni boshqarishning asosiy jihatlari muhokama qilinadi. Innovatsion menejment doirasida korxonalar rivojlanishidagi innovatsiyalarga uslubiy yondashuvlar o'rganiladi. Innovatsion texnologiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning ayrim usullari tavsiflangan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Ergashev, Xalikov, Toshbaevlar (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda innovatsion biznes, innovatsion loyihalarni rejalashtirish va ishlab chiqish, joriy etish istiqbollari doir jarayonlar tizimlashtirilgan. Kadirov, Tursunov, Raimberdiyevlarning (2024) ilmiy tadqiqot izlanishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni joriy etish tizimini moliyalashtirishning ayrim shakllari va usullari umumlashtirilgan. Ibragimova, Xusainovlar (2021) globallashtirish jarayonida milliy iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari va uni tashkil etish tizimiga doir jarayonlarni o'rganganlar. Xolbekova (2023) mamlakatda innovatsion siyosatni tashkil etish tizimini innovatsion rivojlanish strategiyasi muvofiqligini ta'minlashda innovatsion modellardan samarali foydalanish yo'llarini tadqiq etgan. Norov (2020) innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklarining roli o'rganib chiqqan bo'lib, tijorat banklari tomonidan innovatsion loyihalarning samaradorligini oshirish va ularni takomillashtirishdagi mavjud muammolar aniqlangan. Gadaev (2020) tadqiqotlarida sindisyalashtirilgan kreditlar orqali investision loyihalarni moliyalashtirishda jarayonini innovatsion muhit yaratish imkoniyatlariga ta'siri bilan bog'liq jarayonlar o'rganilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarda innovatsion iqtisodiyotning mohiyati, uni moliyalashtirish shakllari, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va zamonaviy tovarlarni taklifini amalga oshirish imkoniyatlari o'rganilingan bo'lib, innovatsiyalarni ishlab chiqarishdagi

tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, yangi bozorlarni egallash jarayonlariga ta'siri bilan bog'liq holatlarga e'tibor berilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida innovatsion iqtisodiyotning ahamiyati va zarurligi mantiqiy abstraksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash va iqtisodiy-matematik, statistik usullardan keng foydalanish orqali asoslangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Har qanday innovatsion faoliyat zamirida avvalombor kishilarning iqtisodiy manfaatdorligi yotibdi, so'ngra esa undan insonlar o'z hayotlarini yanada qulay va yaxshilashga bo'lgan imkoniyat paydo bo'ladi. Ushbu imkoniyat kishilarni cheksiz ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi jihatdan cheklangan iqtisodiy resurslardan samarali va unumli foydalanish imkoniyatini beradi.


Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, barqaror o'sishni ta'minlashda innovatsiyalar o'rni alohida ahamiyat kasb etganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, ilmiy texnikaviy yo'nalishlarda olib borilgan tadqiqotlarni ishlab chiqarish jarayoni bilan integrasiyalashuvi yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalarni tashkil etishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda innovatsion rivojlanish va innovatsion iqtisodiyotning o'rni juda yuqori hisoblanadi. Zero, innovatsion rivojlanishni amalga oshirish avvalo iqtisodiyotning real sektorini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ilmiy-texnikaviy loyihalarni qo'llab quvvatlash, fan va texnologiyalar hamda ishlab chiqarishni uzviy bog'liqligini ta'minlash lozim bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, innovatsion iqtisodiyot nazariyasini tadqiq etish zaruriyati dastlab iqtisodiy va texnologik sohalarda yuzaga kelayotgan inqirozlar sababini o'rganish, davlatlar o'rtasidagi o'zaro zidiyatlarda muvaffaqiyatlarga erishish, davlat o'rtasida zamonaviy qurol yaroqlarni ishlab chiqishga bo'lgan omillar doirasida shakllandi. Shuningdek, iqtisodiy inqirozlarni bartaraf etishda va uning oqibatlarini oldini olishda sanoatga asoslangan rivojlanish siklidan innovatsion rivojlanish fazasiga o'tish muhim ahamiyat kasb etadi

Bilamiz, iqtisodiy yuksaklikka erishishda ilm-fan cho'qqilarini zabt etish, ilmiy izlanishlar olib borish va yangilik yaratish hamda innovatsiyalarni keng joriy qilish mamlakat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqsadlarga erishishda innovatsion infratuzilma mavjudligi juda katta ahamiyat kasb etadi. Innovatsion infratuzilma–innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta'minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mulkchilikning istalgan shaklidagi ular birlashmalarining majmui hisoblanadi.

Ma'lumki, Global innovatsiyalar indeksi (Global Innovation Index, GII) 2007 yildan beri Butunjahon intellektual mulk tashkiloti va uning hamkorlari tomonidan hisoblab chiqiladi. Ko'rsatkich turli jihatlarni, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi, yalpi ichki mahsulot hajmi, infratuzilma, inson kapitali, fanning rivojlanish darajasi va boshqa omillarni hisobga oladi. So'ngi yillarda mamlakatimizda bu borada qator salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Global innovatsiya indeksining 2023 yilgi reytingida O'zbekiston 132 ta davlat orasida 82-o'rinni egalladi.

O'zbekiston innovatsiyalar sohasida milliy iqtisodiy rivojlanish darajasiga solishtirganda baland ko'rsatkichga erishgan mamlakatlar qatoridan joy oldi, ya'ni yalpi ichki mahsulotga nisbatan innovatsiyalarning yuqori samaradorligi qayd etildi. Indeksda mamlakatlar 4 ta daromad guruhiga (yuqori, yuqori o'rta, quyi o'rta va past daromad) bo'lingan bo'lib, O'zbekiston quyi o'rta daromad guruhida 37 ta davlat ichida 10-o'rinni egalladi. O'zbekiston mintaqalar bo'yicha innovatsion iqtisodiyotlar tasnifida 10 ta Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari orasida 4-o'rinni egalladi. Reytingning 2023 yilgi hisobotida O'zbekiston Innovatsiyalarni joriy etish uchun mavjud resurslar va sharoitlar (innovation input)

subindeksida 72-o'rinni, innovatsiyalarni joriy etishda erishilgan amaliy natijalar (innovation output) subindeksida otgan yilga nisbatan 3 pog'onaga o'sib, 88-o'rinni egalladi. O'zbekiston shuningdek reytingda boshqaruv institutlar sifati (+8), Infratuzilma (+1), bilim va texnologiya mahsullari (+2), ijodiy mahsulotlar (+9) yo'nalishlarida o'z o'rnini o'tgan yilga nisbatan yaxshiladi.



1-rasm. Innovatsion jarayonning rivojlanish bosqichlari

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


Innovatsiya jarayoni ma'lum bir davrni o'z ichiga qamrab olib yangilikni yaratishda ifodalanishi uning iqtisodiy samaradorligi bilan bog'liqdir. Chunki innovatsiya strategiyasi ishlab chiqarish jarayonida yangi fan-texnika yutuqlarini qo'llash asosida raqobatchi subyektlarga nisbatan yuqoriroq iqtisodiy salohiyatga ega bo'lishida ifodalanadi. Shuni ta'kidlash lozimki innovatsion jarayonni rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi (1-rasm).

Aytish mumkin, ishlab chiqarish jarayonida ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni qo'llanilishi natijasida ular ilmiy-texnikaviy innovatsiya mahsulotlariga aylanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ilmiy-texnika yangiliklarini ishlab chiqarishga qo'llash innovatsion tovarlarning xususiyatidir. Taraqqiy etgan va ayrim o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida innovatsion investisiyalash borasida boy, ilg'or tajriba to'plangan bo'lib, uni chuqur tahlil etish va respublikamiz amaliyotida ijodiy foydalanish yuzasidan ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, taraqqiy etgan mamlakatlarda innovatsion investisiyalash borasida to'plangan tajribalar xilma-xildir.

Fikrimizcha, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining tajribasidan kelib chiqqan holda, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullaridan milliy iqtisodiyotda kompleks foydalanishni joriy etish maqsadga muvofiq. Xususan, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat va xo'jalik yurituvchi subyektning hissali

ishtirok etishini ta'minlash, olinadigan dividendlarga nisbatan past darajadagi soliq stavkalarini qo'llash innovatsion loyihani investisiyalash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunisi xarakterliki, taraqqiy etgan mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot xarajatlarining asosiy qismini davlat qoplaydi. Masalan, Fransiyada 2019 yilning 1 yanvaridan boshlab, summasi 100 million evrogacha bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarining 30 foizi, 100 million evrodan ortiq bo'lganlarining 50 foizi davlat tomonidan qoplangan (Zaxarova, 2019).



2-rasm Korxonalar innovatsion faolligini ta'minlashning davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash tarmoqlararo hududiy mexanizmi

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

AQShda ilm-fan xarajatlarining qariyb yarmi, Buyuk Britaniyada 50 foizdan ortiq qismi, Germaniyada 40 foizdan ortig'i davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

Olib borilgan va o'rganilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar innovatsion rivojlanishi va innovatsion faolligini ta'minlash uchun davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etadi. Biroq, respublika, xudud va mintaqqa iqtisodiy salohiyati, demografiyasiga muvofiq korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni uzviyligini ta'minlash rejalashtirilgan va ko'zda tutilgan innovatsion loyihalarda davlat tomonidan moliyalashtirish mexanizmini oltita asosiy bloklarga ajratish imkonini beradi (2-rasm).

Tadqiqot natijasida o'rganilgan xorijiy mamlakatlar tajribalari shundan dalolat beradiki, bugungi kunda har qanday mamlakat, hududda faoliyat yuritayotgan korxonalar investision faolligi natijadorligini ta'minlash yaratilgan investisiya muhitiga bevosita bog'liq bo'ladi. E'tiborlisi shundaki, hozirgi zamon innovatsion faolligini oshirishda korxonalar raqamli texnologiyalar va favqulotda yuzaga keladigan iqlim o'zgarishlari bilan uzviy bog'langan holda davlat tomonidan investisiya muhit sharoiti yaratishi kerak bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperasiya aloqalarini rivojlantirish" maqsadi belgilangan. Unga ko'ra innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xom ashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirish, shu jumladan umumiy qiymati 165,9 milliard so'mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish (2022) lozim. Negaki, ilmiy-texnik kadrlarni tayyorlash, ularning bilim darajasini oshirish mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishning eng muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun ham yalpi ichki mahsulot tarkibida ilm-fan sohasiga yo'naltiriladigan mablag'larni bosqichma-bosqich oshirib borish vazifasi belgilangan. Jumladan, O'zbekistonda ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi maqsadli ko'rsatkichlari va indikatorlari tarkibida ham innovatsiyalarga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, davlat asosiy e'tiborni investisiya siyosatini shakllantirish va milliy iqtisodiyotdagi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlaydigan samarali mexanizmlarni yaratish va muvaffaqiyatga erishish uchun yirik darajadagi milliy, tarmoq va hududiy innovatsion loyihalarni amalga oshirishga qaratadi.

Innovatsiyalarga asoslangan bozor iqtisodiyotining ahamiyati, uni yaratish va undagi moliyaviy jarayonlarni yanada jadallashtirish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

–jahon amaliyotida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish bo'yicha tajribalari va yo'llari ko'rsatib berildi.

–bugungi globallashuv zamonida innovatsiya jarayonining ahamiyati, uning iqtisodiyotda zarur ekanligi tushuntirib berildi va innovatsion jarayonni rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ko'rsatildi.

–xorijiy davlatlar tajribalari o'rganilib, innovatsion iqtisodiyotni barpo etishda ilmiy va texnologik yutuqlardan keng foydalanish ahamiyatli ekanligi aniqlandi.

–respublikada iqtisodiyotida innovatsion faollikni ta'minlashga qaratilgan moliya siyosatini takomillashtirish bo'yicha fikrlar bildirildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jahon bozoriga milliy innovatsion mahsulotni olib chiqish mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022 yil 6 iyuldagi "2022 — 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi PF-165-sonli Farmoni

Ibragimova S.A, Xusainov R.R. (2021). Globallashuv jarayonida milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari// Экономика и финансы (Узбекистан). №3 (139).

Kadirov, L., Tursunov, B., & Raimberdiyev, S. (2024). O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish. *Modern Science and Research*, 3(2). Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30996>

Kuznets S. (1953). *Economic growth and income inequality/ S.Kuznets //American Economic Review*. Vol. 45. No 1.

Murojaatnoma (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.

Гадаев, Ж.М. (2020) Инвестицион лойиҳаларни молиялаштиришда синдициялаштирилган кредитлашни қўллаш имкониятлари// Молодой ученый. 2020. № 13 (303). С. 258-260.

Захарова Н. (2019) Координация инновационных процессов в Европейском Союзе//Экономист.-Москва, №7.-65с.

Клайнкнехт А. (1992) Циклы нововведений: вопросы теории: Пер. с англ. М.: Экономика.

Кондратьев Н.Д. (2002) Большие циклы конъюнктуры и теория предвидения. М.: Экономика, стр. 370-371.

Коноваленко М.К. (2003) Управление продуктовыми инновациями. -Харьков, 219 с.

Менш Г. (2001). Технологический пат: инновации преодолевают депрессию. М.: Экономика.

Норов, А. (2020). Инновацион лойҳаларни молиялаштиришда тижорат банкларининг ролини ошириш. Экономика и инновационные технологии, (2), 1–7. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11390

Твисс Б. (1989) Управление научно-техническими нововведениями / Б. Твисс. - М.: Экономика, - 271 с.

Хансен Э. (1997) Экономические циклы и национальный доход // Классики кейнсианства.М.: Экономика, Т. 1. С. 203.

Холбекова, Ф. (2023). Инновацион сиёсат: ҳудудлар иқтисодиёти ривожланишининг пойдеворидир. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 301–309. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp301-309>

Шумпетер Й. (1982) Теория экономического развития: Исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры: пер.с нем.-М.: Прогресс, С.455.

Эргашев Р.Х., Халиков С.Р., Тошбаев А.Ж. (2019). Инновацион иқтисодиёт: Дарслик ; – Т.: “Iqtisod-Moliya”,– 396 б.